

**TURIZMNI MAMLAKAT VA HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**

Ochildiev Murodullo Toshtemirovich

*O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi
biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi*

Annotation

In it article, the author states research on tourist potential to the Samarkand. About opportunity having success, and a task in the future for today's day. Soberly and with a new view states change, reforms in it to branch. And also the author offers in rows the offer and the instruction.

Keywords: tourism, tourism potential, visiting tourism, hotels, number of tourists, tourist destinations.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni 2023-yil 16-sentabrda Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasini ochilishidagi nutqlarini ko'rsatib o'tish lozim. "Turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan hisoblanadi. Ko'plab davlatlar hozirgi murakkab vaziyatda o'z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Turizm mamlakatlarimiz umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omilidir desak mubolag'a bo'lmaydi".


Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi yigirma yilda (2000-2022-yillar) dunyoda turizmni o'rtacha yillik o'sishi 6-7 foizni tashkil etgan. Dunyo milliy daromadini 15,0 foizga yaqini, eksportni 8,0 foizi ushbu tizimga to'g'ri kelmoqda. Ayrim xorijiy davlatlar iqtisodiyotida turizmnинг ulushi 50,0 foizdan ortiq. Jumladan, Vengriyada 61,0 foiz, Gresiyada 50,0 foiz, Turkiyada 35,0 foiz, Misrda 30,0 foizga teng. Turizm sohasida band bo'lganlar soni 320 mingga yaqin bo'lib, dunyodagi umumiy bandlikning 10,0 foizini tashkil qilmoqda. 2022-yilda deyarli bir milliard turist xorijga sayohat qilgan.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar va olimlarning tadqiqot natijalari kelajakda turizm eng barqaror va yuqori suratlarda o'sish imkoniyatiga ega bo'lgan ustuvor yo'nalish sifatida qaralishini bashorat etmoqdalar. Jumladan, UNWTO prognozlariga ko'ra 2030-yilda kelib, sayyohat qiluvchilar soni 1,5 mlrd. kishidan ortiq, tushadigan daromadlar hajmi 5,0 trln. dollardan ko'proq bo'lishi prognoz qilingan.

Lekin, 2019-yilda boshlangan pandemiya (COVID-2019) turizmni rivojlanishiga ma'lum darajada to'siqlarga olib keldi. UNWTO 2021-yilda e'lon qilingan "Jahon turizmi barometri" hisobotnomasiga ko'ra, pandemiya sharoitida turizm o'z rivojlanish

tarixida eng yomon davrni o'tkazmoqda. 2020-yilda 2019-yilga nisbatan xalqaro turizm oqimini 1,0 mld. yoki 74,0 foizga kamaygan. Eksport daromadlar esa 1,3 trln. dollarga tushib, 2009-yildagi iqtisodiy krizisda yo'qotilgan daromadlardan 11,0 marta ko'proq ziyon olib kelgan. Turizm bilan band bo'lган 100 mln.dan 120 mln.gacha ish joylarini kamayishi kuzatilgan. Ularni asosiy qismi kichik va o'rta biznesga taalluqli korxonalaridir.

Turizm oqimini shakllanishiga muvofiq, uni asosan ikkita yirik tashqi va ichki turizm guruhlariga ajratiladi. **Tashqi** turizmn ni xorij mamlakatlardan kelayotgan sayyoohlar (eksport) va mamlakatimiz sayyoohlarini xorij davlatlarga tashrifi (import) tashkil etadi. Ichki turizm mamlakat va mintaqalar miqyosida mahalliy sayyoohlar oqimini shakllanishidan iborat.



1.-rasm. Mamlakat va mintaqalarda turizm bozori turlarini shakllanish tizimi¹

Turizmn ni shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy tadqiqot, boshqaruv obyektlari sifatida makro va mikro (firmalar va tashkilotlar) guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq, deb o'yaymiz. Bunday guruhash turizmn ni ushbu yo'nalishlarda rivojlanishini tartibga solishni, iqtisodiyot fanida aniq turizm sohasida uchta mutaxasislik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Ichki turizm bilan ko'proq bog'liq bo'lган yo'nalishlar sayohatchilar yoshiga qarab mакtabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, yoshlar, mehnatga layoqatlilar va qariyalar bo'yicha guruhlarga ajratish bevosita amaliy ahamiyatga ega. Muhim turizm turlarini shakilanishi jamiyatni ijtimoiy guruhlarini e'tiborga olish bilan

¹ Muallif ishlanmasi.

bog‘liq. Bular o‘rta sinf vakillari, oilaviy guruhlar va alohida shahslarga qaratilgan turizm bozorini rivojlantirishdan iborat.

Xulosa o‘rina shuni turizm va u bilan bog‘liq iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlangan. Ular turizmga bo‘lgan aholi talabi va ehtiyojini o‘sib borishi; turizmga ixtisoslashgan subyektlarni rivojlanishini ta’minlash; turizmga investitsiyalar kiritish tuchun qulay va samaraligi; inson salohiyatini oshirishda turizmni ahamiyati yuqori bo‘lishi; turizm sohasida yashil va raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatini yuqoriligi; kelajakda shakllanishi mumkin bo‘lgan tahdidlar va xavf-xatarlarni oldini olish; turizmni hududlarda o‘sish nuqtalarini va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Toshkent, 2021yil, 9 fevral. №PF-6165.
2. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2023-yil, 11-sentabr, №PF-158
3. O‘zbekiston Respublikasini “Turizm to‘g‘risidagi” qonuni. Toshkent, 2019-yil, 18-iyul.
4. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni, O‘R QHT 6-son (766), 2017 yil 13 fevral, 25-150 bb